XALQ DEPUTATLARI QARSHI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 21 - dekabr VI-79-132-4-59-K/23 Qarshi tuman hokimligi

Qarshi tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda tuman hokimining 2023-yil 2-fevraldagi 7-4-59-F/23-sonli farmoyishiga asosan Respublika aerogeodeziya markazi Surxondaryo hududlararo bo‘linmasi tomonidan Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniga ko‘ra tumanning umumiy perimetri 939 677,26 metr, tuman umumiy maydoni 91 530,07 gektar ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

1. Cho‘libo‘ston qishlog‘ining umumiy peremetri 76 413,94 metr, umumiy maydoni 11 666,39 gektar.

2. Charog‘il qishlog‘ining umumiy peremetri 33 999,56 metr, umumiy maydoni 6 407,96 gektar.

3. Chaman qishlog‘ining umumiy peremetri 70 765,93 metr, umumiy maydoni 2 934,46 gektar.

4. Hilol qishlog‘ining umumiy peremetri 91 064,59 metr, umumiy maydoni 11 958,12 gektar.

5. O‘zbekiston Mustaqilligi qishlog‘ining umumiy peremetri 36 929,60 metr,

umumiy maydoni 2 012,51 gektar.

6. Tallikuron qishlog‘ining umumiy peremetri 36 599,88 metr, umumiy maydoni 4 657,22 gektar.

7. Poshton qishlog‘ining umumiy peremetri 41 046,25 metr, umumiy maydoni 4 267,15 gektar.

8. Potron qishlog‘ining umumiy peremetri 39 489,59 metr, umumiy maydoni 4 451,05 gektar.

9. Navbahor qishlog‘ining umumiy peremetri 31 786,64 metr, umumiy maydoni 5 109,59 gektar.

10. Qoratepa qishlog‘i qishlog‘ining umumiy peremetri 64 132,27 metr, umumiy maydoni 8 667,31 gektar.

11. Qovchin qishlog‘ining umumiy peremetri 56 949,27 metr, umumiy maydoni 5 439,39 gektar.

12. Kat qishlog‘ining umumiy peremetri 44 429,17 metr, umumiy maydoni 7 371,28 gektar.

13. Yertepa qishlog‘ining umumiy peremetri 84 135,40 metr, umumiy maydoni 6 230,14 gektar.

14. Dasht qishlog‘ining umumiy peremetri 47 635,99 metr, umumiy maydoni 4 601,23 gektar.

15. Bog‘obod qishlog‘ining umumiy peremetri 34 563,20 metr, umumiy maydoni 1 379,71 gektar.

16. Beshkent shaharining umumiy peremetri 15 355,75 metr, umumiy maydoni 688,90 gektar.

17. Yangihayot shaharchasining umumiy peremetri 12 023,77 metr, umumiy maydoni 349,66 gektar.

18. Shilvi shaharchasining umumiy peremetri 9 053,82 metr, umumiy maydoni 164,86 gektar.

19. Xonobod shaharchasining umumiy peremetri 14 540,59 metr, umumiy maydoni 455,22 gektar.

20. Fayzobod shaharchasining umumiy peremetri 9 050,79 metr, umumiy maydoni 201,63 gektar.

21. Saroy shaharchasining umumiy peremetri 14 122,95 metr, umumiy maydoni 444,77 gektar.

22. Nuqrabod shaharchasining umumiy peremetri 6 650,66 metr, umumiy maydoni 150,76 gektar.

23. Navro‘z shaharchasining umumiy peremetri 8 471,10 metr, umumiy maydoni 199,46 gektar.

24. Mustaqillik shaharchasining umumiy peremetri 5 412,36 metr, umumiy maydoni 159,65 gektar.

25. Mirmiron shaharchasining umumiy peremetri 7 096,04 metr, umumiy maydoni 173,32 gektar.

26. Lag‘mon shaharchasining umumiy peremetri 8 383,07 metr, umumiy maydoni 265,07 gektar.

27. Qovchin shaharchasining umumiy peremetri 9 661,84 metr, umumiy maydoni 362,62 gektar.

28. Ko‘chkak shaharchasining umumiy peremetri 11 043,87 metr, umumiy maydoni 354,23 gektar.

29. Jumabozor shaharchasining umumiy peremetri 4 915,02 metr, umumiy maydoni 94,25 gektar.

30. Yertepa shaharchasining umumiy peremetri 6 044,48 metr, umumiy maydoni 117,58 gektar.

31. G‘ubdin shaharchasining umumiy peremetri 7 909,88 metr, umumiy maydoni 194,60 gektar.

Kadastr agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi Qarshi tumani bo‘limi boshlig‘i N.Niyozovning axborotini tinglab hamda xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarining taklif va mulohazalarini eshitib, O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori ijrosini

ta’minlash maqsadida Kadastr agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi Qarshi tuman bo‘limi boshlig‘i N.Niyozovning Qarshi tumanining ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi Surxondaryo hududlararo bo‘linmasi tomonidan Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan Qarshi tuman komissiyasining 2023-yil 5-maydagi B-05/43-sonli yig‘ilish bayoni tasdiqlansin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashining qarori tuman hokimligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

3. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashidan so‘ralsin.

4. Mazkur qaror "e-ijro.gov.uz" elektron tizimi orqali manfaatdor tomonlarga yetib borishi inobatga olinsin

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Jo’rayev) hamda ijrosini ta’minlash tuman hokimining o’rinbosari U.Normo‘minov zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi **P.Tuliyev**